TA’LIMDA BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QITUVCHILARI UCHUN PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK YORDAM UYUSHTIRISHNING AHAMIYATI VA USULLARI

[a]Eldorbekova Sojidaxon Iskandarbek qizi
[a]ISFT instituti Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

[b]Islamova Maftuna
[b]ISFT instituti “Psixologiya va pedagogika” kafedrasi dotsenti, p.f.f.d (PhD)

Annotatsiya
Ushbu tezisda bugungi kunda ta’limda boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari uchun pedagogik va psixologik yordam uyushtirishning ahamiyati va usullari haqida fikr va mulohazalar bayon etilgan.
Kalit so‘zlar*. Kasbiy stress, kasbiy kompetensiya, psixologik maslahat, emotsional salomatlik, feedback tizimi, onlayn psixologik platforma.*

KIRISH

Mamlakatimizda ta’lim sifatini oshirish, o‘qituvchi obro‘sini mustahkamlash bo‘yicha ko‘plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Prezidentning ta’lim sohasiga oid qaror va farmonlarida o‘qituvchining kasbiy salohiyatini oshirish, ularni rag‘batlantirish bilan birga, ruhiy va emotsional holatlarini ham qo‘llab-quvvatlash zarurligi ta’kidlanadi. Shu asosda boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilariga nisbatan pedagogik va psixologik yordam tizimini shakllantirish dolzarb masalaga aylanmoqda.

Ta’limda boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari uchun pedagogik va psixologik yordamning ahamiyati bugungi kunda nihoyatda muhimdir. Pedagogik va psixologik yordam boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari uchun quyidagi sabablarga ko‘ra dolzarb hisoblanadi(1-rasm):



1-rasm. Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari uchun psixologik va pedagogik yordam mazmuni


Kasbiy stress va charchoqlarning oldini olish – doimiy emotsional yuklama va darsga tayyorgarlik, ota-onalar va rahbariyat bilan ishlash jarayonida o‘qituvchilar ko‘plab stress omillariga duch keladilar.

Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish – o‘qituvchining metodik yondashuvlari va psixologik yondashuvlarini takomillashtirish uchun maslahatlar va treninglar foydalidir.

Ijobiy muhit yaratish – psixologik yordam o‘qituvchilarda o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshiradi, ijtimoiy-emotsional muhitni sog‘lomlashtiradi.

Ta’limda boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari uchun pedagogik va psixologik yordam ko‘rsatishning bugungi kunda ko‘plab usullari mavjud. Mazkur yordam ko’rsatish usullaridan bir nechtasini misol tariqasida ko‘rib o‘tishni lozim deb topdik(2-rasm).

Treninglar va seminarlar tashkil etishda o‘qituvchilarga stressni boshqarish, bolalar psixologiyasi, zamonaviy pedagogik yondashuvlar bo‘yicha muntazam o‘quv mashg‘ulotlari o‘tkaziladi. **Psixologik maslahatlar va suhbatlarda esa** maktab psixologi tomonidan o‘qituvchilarning shaxsiy va kasbiy muammolari bo‘yicha individual suhbatlar o‘tkazilishi samarali natija beradi. Shuningdek, **kasbiy mentorlik (kouching)** ham nihoyatda samarali usul bo‘lib, unda tajribali ustozlar tomonidan yosh o‘qituvchilarga amaliy maslahatlar, dars jarayonini kuzatish va tahlil qilish asosida yo‘l-yo‘riq beriladi.



2-rasm. Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari uchun pedagogik va psixologik yordam ko‘rsatish usullari

Emotsional salomatlikni qo‘llab-quvvatlash dasturlari jismoniy faoliyat (yengil sport mashg‘ulotlari), art-terapiya, musiqiy terapiya, dam olish mashg‘ulotlari orqali o‘qituvchilarning ruhiy holati mustahkamlanadi.

Feedback tizimini joriy etish o‘qituvchilarning ehtiyojlarini muntazam aniqlab borish, ularning fikrini inobatga olib, psixologik yordam shakl va metodlarini

takomillashtirish. Pedagogik va psixologik yordamning mohiyatini ko‘rib o‘tishni lozim topdik. ***Pedagogik yordam*** - bu o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatini takomillashtirishga, dars jarayonini yanada samarali tashkil qilishga, o‘quvchilarning individual xususiyatlariga moslashgan yondashuvni shakllantirishga yo‘naltirilgan qo‘llab-quvvatlash tizimidir.

Psixologik yordam esa o‘qituvchining ruhiy holatini barqarorlashtirish, stressni yengish, o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali uning ichki resurslarini faollashtirishni nazarda tutadi. Ikkala yordam turining uyg‘unlashuvi o‘qituvchining sog‘lom va muvaffaqiyatli faoliyat yuritishida muhim o‘rin tutadi.

Zamonaviy ta’lim tizimi o‘zgaruvchan va dinamik muhitda faoliyat yuritayotgan o‘qituvchilardan yuqori darajadagi moslashuvchanlik, kasbiy mahorat va psixologik barqarorlikni talab qiladi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida faoliyat yuritayotgan o‘qituvchilar bolalar bilan uzviy muloqotda bo‘lishi tufayli pedagogik hamda psixologik jihatdan doimiy qo‘llab-quvvatlashga muhtoj bo‘ladilar. Bu esa o‘z navbatida ularga nisbatan tizimli yordam uyushtirish zaruratini keltirib chiqaradi. Pedagogik va psixologik yordam tizimining samarali yo‘lga qo‘yilishi boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy muvaffaqiyati va shaxsiy farovonligining kafolatidir. Bunday yordam orqali o‘qituvchilarning ishga bo‘lgan ishtiyoqi, o‘zini anglash darajasi oshadi, bu esa o‘z navbatida bolalar ta’lim-tarbiyasining sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Tashkiliy yondashuvlar sifatida mazkur yo‘nalishda har bir ta’lim muassasasida **psixologik xizmat bo‘linmasi** faoliyatini kuchaytirish; Mahalliy va hududiy darajada **psixologik markazlar** orqali o‘qituvchilar bilan ishlash; O‘qituvchilarni **onlayn psixologik platformalarga** ulash va masofaviy yordam xizmatlarini yo‘lga qo‘yishni tashkillashtirish maqsadga muvofiqdir.

Pedagogik va psixologik yordam tizimining samarali tashkil etilishi boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining ruhiy va kasbiy jihatdan barqaror ishlashini ta’minlaydi. Bunday qo‘llab-quvvatlash vositalari nafaqat o‘qituvchining shaxsiy salohiyatini ochadi, balki u ta’lim olayotgan o‘quvchilarning sifatli bilim olishiga ham zamin yaratadi. Shu boisdan, ta’lim muassasalari rahbarlari va mutasaddilari bu sohadagi mexanizmlarni yanada takomillashtirishga alohida e’tibor qaratishlari lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Axmedova N., Turg‘unova D. *Psixologiya asoslari*, Toshkent: “Fan”, 2020.
2. To‘xtayeva M. *Pedagogik texnologiyalar*, Toshkent: TDPU nashriyoti, 2019.
3. G‘ofurova S. *Ta’lim muassasalarida pedagogik-psixologik yordam mexanizmlari*, Ma’rifat gazetasi, 2022.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori – “2022–2026 yillarda Ta’lim sifatini oshirish dasturi”.
5. UNESCO. *Teacher well-being and mental health*, 2021.